XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-dekabr VII-3-014-10-214-K/24 Ohangaron shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Ohangaron shahridagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish manzillari yagona reyestri yuritilishini yanada jadallashtirishni tashkil qilish bo‘yicha Respublika ishchi guruhining Toshkent viloyati bo‘yicha o‘rganish yuzasidan bir qator topshiriqlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilganligi va unga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining davlat Kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Ohangaron shahar filialining 2024-yil 24-maydagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 104-sonli xatiga muvofiq shaharda o‘tkazilgan xatlov natijasida 10 ta nomsiz ko‘chalar, (5 ta asosiy ko‘cha, 3 ta berk, 2 ta tor) mavjudligi, aniqlanganligi va ularni nomlash zarurligi so‘ralgan.

O‘rganishlar orqali, Ohangaron shahar Bunyodkor mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2024-yil 19-avgustdagi 16-sonli, Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2024-yil 12-avgustdagi 01-08-24-sonli, Namuna mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2024-yil 12-avgustdagi 11-sonli, Xonobod mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2024-yil 12-avgustdagi 10-sonli bayonnomalari ko‘rib chiqilib, shahardagi ayrim geografik obyektlarning nomlari normativ huquqiy asoslanmaganligi aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 4-sentabrdagi 03/08-8531-sonli xati, geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining **2024-yil 30-avgustdagi 05-19-01-3635-sonli bayoni** va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 5-sentabrdagi 1/12-4-4033-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy

davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari N.Mirzayevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 4-sentabrdagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 03/08-8531-sonli xati va xatga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 30-avgustdagi 05-19-01-3635-son yig‘ilish bayoni va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan, shahardagi 10 ta ko‘cha qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosari A.Karimdjanov, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Ohangaron shahar bo‘limi bohlig‘i O.Abdusamatovga 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida o‘zgargan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish, almashtirish, Bunyodkor, Namuna, Bo‘ston, Xonobod mahalla fuqarolar yig‘inlari tizimidagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (N.Mirzayeva)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi, shahar IIB, shahar qurilish bo‘limi, Kadastr agentligining shahar bo‘limi, Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali, shahar Davlat soliq inspeksiyasi, shahar statistika bo‘limi, shahar moliya bo‘limi, shahar Davlat xizmatlari markazi rahbari va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni ko‘chalar o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsinlar.

5. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, qurilish, kommunal, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Alisherov) hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (N.Mirzayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  M.RAJABBOYEV

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2024-yil 12-dekabrdagi
VII-3-014-10-214-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ohangaron shaharda xatlov natijasida aniqlangan nomsiz ko‘chalar nomlari
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi qarori bilan tasdiqlangan	Izoh
1	Ko‘cha	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Shukrona	Xatlov natijasida aniqlandi
2	Tor	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Shukrona tor	Xatlov natijasida aniqlandi
3	Ko‘cha	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Madaniyat	Xatlov natijasida aniqlandi
4	Tor	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Madaniyat 1-tor	Xatlov natijasida aniqlandi
5	Berk	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Madaniyat 1-berk	Xatlov natijasida aniqlandi
6	Berk	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Madaniyat 2-berk	Xatlov natijasida aniqlandi
7	Berk	Bunyodkor mahalla	Nomsiz	Madaniyat 3 -berk	Xatlov natijasida aniqlandi
8	Ko‘cha	Bo‘ston mahalla	Nomsiz	Shodiyona	Xatlov natijasida aniqlandi
9	Ko‘cha	Namuna mahalla	Nomsiz	Turon	Xatlov natijasida aniqlandi
10	Ko‘cha	Xonobod	Nomsiz	Hilol	Xatlov

		mahalla			natijasida aniqlandi

Izoh; Xatlov natijasida aniqlangan.
Jami; 10 ta ko‘cha, shundan 5 ta asosiy, 3 ta berk, 2 ta tor.